



## MISR "YANGI SHE'RIYATI" DA SHAKL VA MAZMUN MUNOSABATI

***Ikrom Bultakov***

*O'qituvchi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent,  
 Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
 Toshkent, O'zbekiston*

### MA QOLA HA QIDA

**Kalit so'zlar:** "yangi she'riyat", an'anaviy qasida, erkin she'r, shakl, mazmun, aruz, vazn, rukn, qofiya, nasriy she'r.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmida Misr adabiyotida yuzaga kelgan "yangi she'riyat" harakati va uning xususiyatlari, jumladan, "yangi she'riyat"ning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari hamda ijtimoiy-estetik omillari, taraqqiyot bosqichlari, «'ash-shi'ru-l-hurr» ("erkin she'r") da shakl va mazmun munosabati, vazn va qofiya masalalari bayon etilgan. "Yangi she'riyat" namoyandalari milliy merosdan voz kechmagan holda jahon she'riyati tajribasiga yondashadilar. Umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lib, ulardan samarali foydalandilar. Ular milliy she'riyat xazinalarini yanada boyitib, bir tomonidan, XX asrning boshlarida yangi mumtoz (neoklassik) she'riyatning buyuk shoirlari Mahmud Samiy al-Barudiy, Ahmad Shavqiy, Hofiz Ibrohim, Xalil Mutronlar tiklagan ijtimoiy-siyosiy she'riyatni davom ettirgan bo'lsalar, ikkinchi tomonidan, arab romantiklari ilgari surgan shaxsiyatning qadr-qimmatini e'zozlash, uning ichki dunyosini kashf etish kabi tamoyillarni saqlab qolishga erishdilar.

## THE RELATIONSHIP BETWEEN FORM AND CONTENT IN EGYPTIAN "NEW POETRY."

***Ikrom Bultakov***

*Lecturer, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor,  
 Tashkent State University of Oriental Studies  
 Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** "new poetry", traditional poem, free verse, form, content, meaning, weight, stanza, rhyme, prose poem.

**Abstract:** In this article, the movement of "new poetry" that appeared in Egyptian literature in the second half of the 20th century and its characteristics, including the reasons for the emergence and development of "new poetry" and socio-

aesthetic factors, stages of development, "ash-shi'rū-l-hurr" ("free verse") describes the relationship between form and content, weight and rhyme. Representatives of "New Poetry" approached the experience of world poetry without abandoning the national heritage. They enjoyed universal values and used them effectively. They further enriched the treasures of national poetry and, on the one hand, continued the socio-political poetry restored by the great poets of the new classical (neoclassical) poetry, Mahmoud Sami al-Barudi, Ahmad Shawqi, Hafiz Ibrahim, Khalil Mutron, at the beginning of the 20th century. On the other hand, Arab romantics they managed to preserve the principles of respecting the dignity of the individual, discovering his inner world.

## ОТНОШЕНИЕ ФОРМЫ И СМЫСЛА В ЕГИПЕТСКОЙ "НОВОЙ ПОЭЗИИ"

*Икрома Бултакова*

*Преподаватель, кандидат филологических наук, доцент,  
Ташкентский государственный университет востоковедения  
Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** «новая поэзия», традиционное стихотворение, свободный стих, форма, содержание, смысл, вес, строфа, рифма, стихотворение в прозе.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается движение «новой поэзии», возникшее в египетской литературе во второй половине XX века, и его характеристики, в том числе причины возникновения и развития «новой поэзии» и социально-эстетические факторы, этапы развития. «аш-ши'ру-л-хурр» («свободный стих») описывает соотношение формы и содержания, веса и рифмы. Представители «Новой поэзии» приблизились к опыту мировой поэзии, не отказываясь от национального наследия. Они пользовались общечеловеческими ценностями и эффективно их использовали. Они еще больше обогатили сокровища национальной поэзии и, с одной стороны, продолжили общественно-политическую поэзию, восстановленную великими поэтами новой классической (неоклассической) поэзии Махмудом Сами ал-Баруди, Ахмадом Шавки, Хафизом Ибрагимом, Халилом Мутроном, в начале 20 века. С другой стороны, арабским романтикам удалось сохранить принципы уважения достоинства личности, раскрытия ее внутреннего мира.

## KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmidan arab madaniyatining o‘chog‘i – Misr adabiy muhiti yangi zamon arab she’riyatining vujudga kelishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. O‘tgan asrning bir necha o‘n yilliklari davomida Misr she’riyatida yangi oqimlar va yo‘nalishlar vujudga keldi, jumladan, qasida janri ham shaklan, ham mazmunan o‘zgarishlarga uchradi, an’ana va yangilanish tamoyillari o‘rtasida kurash kuchaydi. XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan “yangi she’riyat” – (الشعر الحديث) ‘ash-shi‘ru-l-hadis) harakati bu davrda Misr adabiyotining asosiy yo‘nalishiga aylandi. “Yangi she’riyat” yangi dunyoqarashning shakllanishi va uning keyingi rivojida, millatning o‘z-o‘zini anglashida, yangi davr ruhiyatini aks ettirishda ham asosiy omillardan biri bo‘lib qoldi.

Misr “yangi she’riyat”i Saloh Abdussabur (1927–1981), Ahmad Hijoziy (1934), ayniqsa, Amal Dunqul (1940–1983) kabi shoirlar ijodida o‘z aksini topdi.

Misr “yangi she’riyat”i rivojining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iborat ediki, bu yerda an’anaviy she’riy shakllardagi o‘zgarishlar boshqa arab davlatlaridagiga nisbatan uzoq, XX asrning boshidan boshlanib 50-yillargacha davom etdi. Shu sababli Misr ijodkorlari oldida Iraq va Suriya shoirlari to‘qnash kelganidek, o‘rta asr merosini keskin chegaralab qo‘yish vazifasi turmagan edi. Bu davrga kelib juda uzoq va ko‘p izlanishlar, tajribalar natijasida zamonaviy shoirlar she’r yozish nizomini o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldilar. Shunday bo‘lsa-da, ular an’anaviy qasida yozish shakli – aruzdan butunlay voz kechmadilar. “Yangi she’riyat”, avvalo, mazmunan yangi voqelikni ifodalashda ko‘rindi, shakl jihatidan esa, u ham an’anaviy qasida, ham zamonaviy she’r yozish shakllarini mujassamlantirdi” [9:64].

Ma’lumki, aruz vazni VIII asrda tilshunos Abdurrahmon al-Xalil ibn Ahmad al-Azdiy tomonidan tasniflashtirilgan bo‘lib, u 16 bahrni o‘z ichiga oladi. Aruz vaznida yozilgan qasida har biri tugal ma’noga ega bo‘lgan baytlardan tashkil topib, har bir bayt o‘z navbatida ikki ritmik bo‘lak satr – misralardan tashkil topadi. Har bir misra esa kichikroq bo‘laklar – ruknlarga bo‘linadi. Rukn yoki taf‘ilalar harakatlari va sukunli harflarning ma’lum vaziyat talabiga monandlashib, zarur tartib bilan keluvchi maxsus birligidir. Ana shu birlik aruz bahrlarini o‘zaro farqlovchi asosiy o‘lchov vazifasini o‘taydi. Aruz vaznida yozilgan an’anaviy qasida qofiyasi so‘nggiga qadar bir xil bo‘lishi shart. Arab she’riyati shu shaklda XX asrga qadar o‘zgarmay keldi.

Misol tariqasida aruz vaznida yozilgan quyidagi qasidaning baytlariga e’tibor beraylik va ruknlarni aniqlaylik:

يا هلا قد تجي	في ثياب من حرير
<u>فاعلاتن فاعلاتن</u>	<u>فاعلاتن فاعلاتن</u>
قاها كل أمير وأميرا بهواه	
<u>فاعلاتن فاعلاتن فاعلاتن</u>	
ما لحديك استعرا	حمرة الورد النضير
<u>فاعلاتن فاعلاتن</u>	<u>فاعلاتن فاعلاتن</u>
ورسوم الوصل قد آل	[1:80] بستها ثوب دثور
<u>فاعلاتن فاعلاتن</u>	<u>فاعلاتن فاعلاتن</u>

*Harir liboslarda paydo bo‘lib yoritding borliqni, ey hilol!*

*Ishqda amir bo‘lib, barcha amirlarni sen mag‘lub qilding.*

*Yonoqlaring go‘zal guldan qizillikni olgan,*

*Visol suratiga kiydirding halokat kiyimin.*

Ko‘rib turganimizdek, qasida ramal bahrida yozilgan. Arab she’riyatida ramalning to‘liq va qisqartirilgan shakllari mavjud. To‘liq ramal olti ruknli, qisqartirilgan ramal esa to‘rt ruknlidir. Yuqoridagi qasida qisqartirilgan ramalda yozilgan.

E’tibor bersak, yuqoridagi qasidaning ba’zi ruknlarida dastlabki yengil sababning<sup>1</sup> sukunlisi tushib qolgan. Bunday o‘zgarish aruzda “xabn” deb ataladi.

فَاعْلَاتْنَ ← فَاعْلَاتْنَ

(حرير، أمير، نفير، ثور).

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, “apollonchilar” aruz texnikasiga sezilarli o‘zgarishlar kiritib, qasidaning tashqi – qofiya, satr tuzilishlarida ham, ichki – mazmun borasida ham yangiliklar qildilar.

Masalan, Abu Shadiyning ramal vaznida yozilgan quyidagi “Odil jazo” – *الجزاء العالى* (الـ جـازـأـعـالـى) she’riga e’tibor beraylik hamda yuqoridagi qasida shakli va vazni bilan solishtiraylik.

جزع الصب للحزن العميق	في سبيلاك
<u>فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَاتْنَ</u>	<u>فَاعْلَاتْنَ</u>
لوعة الدنيا فمن هذا يطبق	لمثياك
<u>فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَاتْنَ</u>	<u>فَاعْلَاتْنَ</u>
غير ملك وضياء وحبور	لا يضيع
<u>فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَانَ</u>	<u>فَاعْلَانَ</u>
كؤوس الحب به شتى تدور	وتوزع
<u>فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَاتْنَ</u>	<u>فَاعْلَاتْنَ</u>
بين الآف العقول الحائرات	في جمالك
<u>فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَانَ</u>	<u>فَاعْلَانَ</u>
وأغاريد الطيور الشاعرات	[13:356] بنوا لك
<u>فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَاتْنَ فَاعْلَانَ</u>	<u>فَاعْلَانَ</u>

*Oshiq chuqur g‘amga botdi sening yo‘lingda,  
Bu dunyo dardlariga kim chidam berar sen kabilar tufayli,  
Mol-mulksiz, ziyosiz, shodliksiz yo‘qolmaydi u,  
Muhabbat qadahlari davrada aylanib tarqaladi,  
Dovdiragan minglab aqlar aro jamoling uchun.  
Qushlarning oshiqona sayrashlari – bu ham sen uchun.*

Bu she’rda ham to‘rt ruknli qisqartirilgan ramal qo‘llanilgan. Bu holda har bir misrada ikkitadan rukn bo‘lishi lozim edi. Lekin unda birinchi misra xuddi to‘liq ramaldagidek uchta ruknga, ikkinchi misrada esa faqat bir ruknga ega. Ko‘rinib turibdiki, shoir bahr vaznimi, shu bilan birga she’r shaklini o‘zgartirgan. Qofiyalanish esa so‘ngiga qadar bir xil qofiyaga ega bo‘lgan an’anaviy qasidadan farqli a-a, b-b, v-v (مزوج – muzdavij) tarzida takrorlanadi. Bunday qofiyalanish mumtoz arab she’riyatida uchrasa-da, ko‘p tarqalmagan. Shoir she’rning ma’nosidan kelib chiqib, bir ruknni o‘zida tashkil qilgan oxirgi so‘zga alohida urg‘u beradi. Albatta, bu hol an’anaviy shakldan cheklanish va aruz muvozanatini buzish deb ta’riflanadi.

Abu Shadiy va boshqa apollonchilar<sup>2</sup> ijodida bunday she’rlarni ko‘plab uchratamiz.

Ko‘p hollarda ular qadimgi urjuza<sup>3</sup> va muvashshah<sup>4</sup> she’r yozish shakllariga murojaat qilganlar, ularga o‘zgartirishlar kiritib yanada rivojlantirganlar.

<sup>1</sup> Yengil sabab – bir qisqa harakatli va bir sukonli harflar birikmasidan iborat.

<sup>2</sup> “Apollon” - XX asrning 20-30-yillarida faoliyat ko‘rsatgan a’dabiyl jamiyat.

<sup>3</sup> Urjuza – rajaz vaznida yozilgan eng sodda she’riy shakl.

“Apollon” shoirlari juft qofiyaga ega bo‘lgan ikki baytdan iborat – dubayt va bir misrada ikki bahr – ramal va hazaj ruknlarini uyg‘unlashtirgan banddan ham keng foydalanganlar. Bu noan’anaviy shakllarning barchasi erkin she’r shakliga o‘tishga zamin yaratdi. “Biz Apollon” jamiyatini eslar ekanmiz, – deb yozgan edi taniqli shoir Kamol Nashaat, – zehnimizda darhol Ibrohim Najiy, Hasan Komil as-Sayrafiy, Muxtor al-Vakil, Mahmud Hasan Ismoil, Ali Mahmud Taha kabi shoirlarning ismlari gavdalanadi. Ular yangi arab she’riyatining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan va uni go‘zal badiiy rivoj sari yo‘llagan buyuk shoirlardir” [16:120].

Yana bir arab shoiri Saloh Abdussabur esa apollonchilar faoliyatiga yuqori baho berib, “bu arab she’riyati tarixida eng buyuk yangilanish harakati bo‘ldi, chunki u arab she’riyati asosini va uning tuzilish uslublarini o‘zgartirdi. Bu yangilanish avvalgi harakatlardan tubdan farq qiladi”, – deydi [9:213].

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘tgan asrning 20-yillarida muhojirlikdagi Suriya-Amerika maktabi shoirlari Ilya Abu Madiy, Nasib Arida, Favziy Maldu, Ilyos Farxatlar “Devon” va “Apollon” shoirlaridan ilgariroq arab she’riyatida yangiliklar yaratgan edilar. Bu shoirlar G‘arb va Amerika she’riyatidan ta’sirlangan holda arab qasidasining an’anaviy shaklida o‘zgarishlar qildilar, so‘zlarni ixtiyoriy ravishda joylashtirib, baytlardagi ruknlarning bir xilligiga rioya qilmadilar. Hatto she’riy matn sintaksisisini ham ikkilanmay o‘zgartirdilar. Lekin arab dunyosidan yiroq bo‘lganliklari uchun ularning ijodi arab she’riyatiga unchalik ta’sir qilmadi. Bu shoirlarning yangilanish harakatlari esa g‘arb she’riyatiga taqlid sifatida qabul qilindi. Ba’zilar tomonidan ular arab tilini bilmaslikda ayblandilar. Appolonchilarning she’riy texnika sohasidagi tajribalari, aruz doirasidan chiqib unga o‘zgartirishlar kiritish borasidagi yangiliklari esa barcha arab davlatlarida novatorlik harakatlarini boshlab berdi. XX asrning 40-50-yillariga kelib aruzda shu vaqtga qadar bo‘lмаган yangi vaznlarning vujudga kelishi natijasida she’r yozish nizomi o‘zgara boshladи. Bu sohada birinchi bo‘lib falastinlik shoira Fadva Tukan qalam tebratgan bo‘lsa-da, haqiqiy novator iroq shoirasi Nozik al-Maloika bo‘ldi. 1947-yilda shoira “al-Urubba” jurnalida o‘zining “Vabo” – ‘al-Kulirā) nomli she’rini nashr ettirdi. Bu she’r arab she’riyatida shu kunga qadar noma’lum bo‘lgan shaklda yozilgan edi. Shu sababli u tezda barchani o‘ziga jalb etdi. Shu yili yana bir adabiyotshunos Luis Avadning “Sarguzashtlar diyori yoki boshqa she’rlar” – بلد المغامرات أو الأشعار الأخرى (Baladu-l-mug‘āmarāt ‘avi-l-‘ash‘āru-l-‘uxrā) nomli to‘plami nashrdan chiqdi. To‘plam muqaddimasida muallif arab she’riyatining keyingi yillarda tanazzulga yuz tutayotganini ta’kidlab, shoirlarni uni hayotga qaytarish va yangilash yo‘lida izlanishlar olib borishga chaqirdi. To‘plam “erkin she’r” shaklida yozilgan 29 ta (shuningdek, 15 ta Misr lahjasida yozilgan) asarni o‘z ichiga olgan edi. Ular adabiy tanqidchilik tomonidan “saralangan shaxslar uchun mo‘ljallangan she’rlar” sifatida baholanganligi tufayli ko‘pchilik bunday she’riy shaklga qarshi chiqdi. Nozik al-Maloikaning 1949-yilda nashr etilgan “Tarashalar va kul” – شظايا و رمد (Shazāyā va ramad) to‘plamida ham shunday shakldagi bir qancha she’rlar bor edi. To‘plam muqaddimasida shoira o‘zi yaratgan yangiliklar haqida so‘z yuritgan. Bu to‘plam matbuot va adabiy davralarda ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Shunga qaramay arab she’riyatidagi yangilanish harakati bir xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoit vujudga kelgan davlatlar – Suriya, Livan, Iroq, Misrda keng tarqaldi. Bu davr mazkur davlatlarda milliy-ozodlik harakatlari kuchaygan, milliy mafkura rivojlana boshlagan davr edi. Iroqda Abdulvahhab al-Bayotiy, Jabro Ibrohim Jabro, Badr Shokir as-Sayyob, Falastinda

<sup>4</sup> Muwashshah – X-XI asrlarda Andalusiyada (Ispaniya) vujudga kelgan bandlishe’r shakli.

Mahmud Darvish, Livanda Yusuf al-Hol va uning “Shi’r” jurnali atrofida to‘plangan shoirlar yangilanish harakatining davomchilari bo‘ldilar.

Arab adabiyotida “yangi she’riyat” ikki shaklda namoyon bo‘ldi – erkin she’r – ‘ash-shi‘ru-l-hurr yoki شعر التفعيلة shi‘ru-t-taf‘ila) va nasriy she’r (‘ash-shi‘ru-l-mansur yoki قصيدة النثر qasidatu-n-nasr). Nasriy she’r vazn va qofiyadan mahrum bo‘lib, kitob sahifalarida alohida satrlar bilan emas, xat boshi bilan beriladi. Nasriy she’rni qofiyalangan nasr – saj’ bilan almashtimaslik lozim. Arab adabiyotda saj’ qofiyali, lekin vazndan holi bo‘lgan adabiy janrdir. Yangi Misr she’riyatida nasriy she’r ko‘p uchramaydi. Shu sababli biz asosiy e’tiborni erkin she’r shakliga qaratdik. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu shakl an’anaviy aruz vaznlariga amal qilgan holda vujudga keldi va rivojlanib bordi. Shoirlar o‘z she’rlarini aruz bahrlariga suyangan holda yozdilar. Lekin erkin she’r satrlaridagi ruknlar soni an’anaviy qasida misralarida bo‘lganidek bir xil miqdorda emas, balki turlicha – ruknlar muvozanati buzilgan holda berildi.

Arab adabiyotida erkin she’rning afzallikkleri va aruz bilan chambarchas bog‘liqligini erkin she’r nazariyotchisi shoira Nozik al-Maloika ham o‘zining “Zamonaviy she’riyat muammolari” kitobida ta’kidlab o‘tadi. Shoira o‘z kitobida shunday deydi: “Shoir she’rda o‘z erkinligi tufayli ko‘zga tashlanadi. Uning she’r satrlari muayyan o‘lchamda bo‘lishi yoki uning boshidan oxiriga qadar sobit qofiyani saqlab qolishi shart emas. Shoир she’rini boshlar ekan, osonlik bilan barchani o‘ziga jalb qiladi. U qofiyalashda cheklanmaydi va uning uchun ruknlarning muayyan soni yo‘q. Chunki u erkin, erkinlik bilan mast bo‘lgandir. U erkinlik sarxushligida, unutishi kerak bo‘lmagan qoidalarni ham yoddan chiqaradi” [15:41].

Shoira o‘z kitobida bir xil ruknlarga ega bo‘lgan “solim bahrlar” – komil, hazaj va rajaz yoki turli ruknlarga ega bo‘lgan “aralash bahrlar” – sari’ va vofirdan zamonaviy she’riyatda foydalanish maqsadga muvofiq va qulay deb ta’kidlaydi.

Erkin she’rda qaysi so‘z yoki iborani ajratib aytish zarur bo‘lsa, u alohida satrga chiqariladi. Shoир qaysi tartibda his-hayajon va fikrni ifoda etishga intilsa, so‘zлarni shu tartibda teradi. Rukn va ohang kechinma taqozosi bilan o‘zgarib turadi. “Zamonaviy shoirdagi ruhiy holat unga yuksak mas’uliyat yukladi. Endilikda arab she’rining an’anaviy shakli shoirdagi ruhiy holatni ifodalash uchun ojiz bo‘lib qoldi. Shu asnoda baytning musiqiy birligi buzildi. Bayt she’riy satrlarga, satrlar she’riy jumlalarga, she’riy jumlalar esa shoир ruhiyatini ifoda etgan asarga aylandi” [12:129].

50-yillarda jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni jo‘shqinlik va hayajonlilik bilan aytish lozim bo‘lib qolgan edi. Chunki keng omma bunga muhtoj edi. Yangi she’riyat bu masalani hal etdi, chunki erkin she’rda ixchamlik, lo‘ndalik, bosim, hayajon ortadi. Unda da’vat, xitob, chaqiriqlarni ifodalash qulay.

Misol tariqasida, shoир Saloh Abdussaburing erkin shaklda yozilgan “Alam” – الحزن (al-Huzn) nomli she’rini ko‘rib chiqamiz va ruknlarini aniqlaymiz.

- |     |   |
|-----|---|
| (1) | يا صاحبي إني حزين                       |
| (2) | طلع الصباح فما ابسمت ولم ير وجهي الصباح |
| (3) | وخرجت من جوف المدينة أطلب الرزق المتأخر |
| (4) | وغمست في ماء القناعة خbiz أيام الكفاف   |
| (5) | ورجعت بعد الظهر في جنبي قروش            |
| (6) | فسربت شايا في الطريق                    |
| (7) | ورتقت نعلي                              |
| (8) | ولعبت بالنرد الموزع بين كفي والصديق     |

- |                                  |      |
|----------------------------------|------|
| قل ساعة أو ساعتين                | (9)  |
| قل عشرة أو عشرتين                | (10) |
| وضحت من اسطورة حمقاء ردها الصديق | (11) |
| ويموع شحاذ صفيق [10:199]         | (12) |

*Do'stim! Qalbim to'igan dardu-alamga  
Tong ham otdi, siypamadi bu subhidam mahzun yuzimni.  
Rizqim izlab shahardan chiqdim,  
Qanoat suviga botirib rizqu-ro'zimni.  
Cho'ntakda chaqa bilan tushdan so'ng qaytdim.  
Yo'l ustida choyimni ichib,  
Yamattirdim poyafzalimni.  
Nard o'ynadim, goh men, gohida do'stim irg'itadi tosh.  
Bir soat o'ynaymiz yoki undan ko'p,  
O'n marta o'ynaymiz yoki yigirma.  
Kuldim, do'stim aytgan ahmoqlar haqidagi afsonadan,  
Semiz tilanchining ko'zidagi yoshidan.*

She'r ruknlari va ularning satrlaridagi soniga e'tibor beraylik:

2 ta	مستفعلن مستفعلن	(1)
4 ta	متفاعلن مستفعلن متفاعلن مستفعلن	(2)
4 ta	مستفعلن متفاعلن مستفعلن متفاعلن	(3)
4 ta	متفاعلن مستفعلن متفاعلن مستفعلن	(4)
3 ta	مستفعلن مستفعلن مستفعلن متفاعلن	(5)
2 ta	مستفعلن مستفعلن متفاعلن	(6)
1 ta	متفاعلن	(7)
4 ta	متفاعلن مستفعلن متفاعلن مستفعلن	(8)
2 ta	مستفعلن مستفعلن	(9)
2 ta	مستفعلن مستفاعلن	(10)
4 ta	متفاعلن مستفعلن متفاعلن مستفعلن	(11)
2 ta	متفاعلن مستفعلن	(12)

Ko'rib turganimizdek, she'r rukni **متفاعلن** bo'lib, u komil bahrining ruknidir. Bu bahr arab she'riyatida eng ko'p qo'llaniladigan uch bahrning biridir<sup>5</sup>. Komilning asliy ruknlari oltita bo'lib, an'anaviy qasidada u to'la va qisqartirilgan shakkarda ishlatiladi. Bahr ruknlari:

### متفاعلن      متفاعلن      متفاعلن      متفاعلن

Lekin yuqoridagi she'r satrlaridagi ruknlar soni turlicha bo'lib, bu zamonaviy she'rning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Uning ruknlari aruzda bo'ladigan o'zgarishlarga uchragan. Jumladan, she'rda uchragan o'zgarishlardan biri komil bahrida eng ko'p uchraydigan o'zgarish – idmor bo'lib, u ikkinchi harakatli harfning sukunlanishi oqibatida hosil bo'ladi.

**مُتَفَاعِلْنَ ← مُتَفَاعِلْنَ = مُسْتَفْعَلْنَ**

Bunday o'zgarish asarning har bir satrida uchraydi.

She'rning yettinchi satridagi rukn esa illatlidir<sup>6</sup>. Bu illat muraffal bo'lib, u rukn ortida yig'ilgan vata<sup>7</sup>ga yengil sabab orttirish orqali hosil bo'ladi.

<sup>5</sup> Bular komildan tashqari tavil va rajazdir.

<sup>6</sup> Illat (علة) luғ.m.: illat, bemorlik) – baytlarning arud va darb, ya'niso'nggi ruknlaridagina sodir bo'luvchi o'zgarishlar.

<sup>7</sup> Yig'ilgan vata – ikki harakatli va bir sukulni harflaryig'indisidan iborat.

مُتَقَاعِلْ = مُتَقَاعِلْ ← مُتَقَاعِلْ

Yana bir she'rga e'tibor beraylik. Bu she'r ham (Badr Shokir as-Sayyob, "G'arib qalb" ( يا – غربة القلب – Yā g'urbatu-l-qalb)) aruz vazniga to'liq amal qilingan holda yozilgan. Uning satrlaridagi ruknlari soni bir xil. Garchi u aruz vaznida yozilgan bo'lsa-da, shakl jihatidan an'anaviy qasidadan farq qiladi. Zamonaviy arab she'riyatida bunday she'rlar ko'p uchraydi.

- (1) الحب كان اخطاف الروح ناجاها
- (2) روح سواها، له من لمسة بيد
- (3) لخيرة من كنوز دونما عدد
- (4) الحب ليس انسحاقا في رحى الجسد [10:247]

*Bu sevgi ko'ngilni olib qochib qutqardi,  
Boshqa ko'ngildan u solgan edi qo'l.  
U sanoqsiz boyliklarga to'la zaxira,  
Maydalananmas hatto vujud tegirmonida.*

Bu she'r basit bahrida yozilgan. Uning ruknlari quyidagicha:

4 ta	فاعل	مستعمل	فاعل	مستعمل	(1)
4 ta	فعلن	مستعمل	فاعل	مستعمل	(2)
4 ta	فعلن	مستعمل	فعلن	مستعمل	(3)
4 ta	فعلن	مستعمل	فاعل	مستعمل	(4)

She'r basit bahrida uchraydigan o'zgarishlarga amal qilingan holda yozilgan bo'lib, uni an'anaviy shaklda quyidagicha yozishimiz ham mumkin. Natijada teng ruknli ikki misrali baytlar vujudga keladi.

روح سواها، له من لمسة بيد	الحب كان اخطاف الروح ناجاها
الحب ليس انسحاقا في رحى الجسد	لخيرة من كنوز دونما عدد

Bulardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, zamonaviy shoirlar ham aruz ilmini mukammal bilganlar. Ular muxolif kuchlar ta'kidlaganidek, aruzdan butunlay voz kechmaganlar, balki uning bahraridan unumli foydalanib, zamon ruhiga mos asarlar yaratganlar. "Garchi aruz ustidan qilingan bu inqilob qadimgi qasida yozish shaklini rad qilgan bo'lsa-da, arablarning bu merosidan butunlay voz kechmadi" , - deb yozadi Iziddin Ismoil [9:64].

Zamonaviy she'rlarning o'ziga xos shakliy xususiyatlaridan yana biri shuki, ularda shoir so'zlarni ba'zan zinapoya tartibida teradi. Muayyan zinapoyalar uyushib, misralarni hosil etadi. Ohang yuqoridaqidek muayyan ruknlarning takrorlanishi orqali paydo etilib, she'r o'quvchi bilan qilingan jonli suhabatga o'xshaydi. Zinapoya muhim so'z yoki jumlanı ajratib ko'rsatadi. Uning mazmun tomoni esa she'r texnikasiga ko'proq vazifa yuklaydi. Zinapoya u yoki bu ma'noni ajratib ko'rsatadi. Masalan, zamonaviy shoir Favziy Xidrning "Askar esdaliklaridan olti varaq" ( ست ورقات من منكريات جندي ) she'riga e'tibor beraylik.

في الفجر ... كنت صاعداً من الحقوق  
وعلمنوني أن مصر ببرة تفرعت... فأتّجّب لنا:  
أبي...  
ودارنا...  
والفرن...  
والجميز...  
والدجاج...  
والقمر...  
 وأنها ماء يصبّه لنا بريقتنا: شاي السمر  
 وأنها التفاحة الفصوص

وأنها ليمونة... وصدر أمى - في المساء ... والساقيه  
والعلبة التي يطل من جبينها الغاء  
وأنها أنا ...  
وأنتي هي!! [11:77-78]

*Erta tongda keng dalalar osha borardim,  
Menga o'rgatganlar – bu ona Misr - har tomonga sochilgan urug'.  
U bizga yetkazib berdi  
Otamni...  
uyimizni...  
o'chog'imizni...  
parrandalarni...  
va mevalarni...  
hattoki oyni...  
U qumg'onimiz to'ldirgan suvdir,  
Tungi suhbatlarda ichgan choyimiz.  
U fasllar almashuvi,  
U limondir... hamda tunlar men qidirgan onam ko'kragi,  
U jilgadir bizlarni suvga qondirgan.  
U qo'shiqlar kuylaydigan go'zal quticha,  
Men udir...  
U esa men.*

Zamonaviy shoirlar o'z asarlarida qofiyalanish masalasiga katta e'tibor berdilar. Yuqorida aytib o'tganimizdek, an'anaviy qasida baytlari boshidan to oxiriga qadar bir xil qofiyalaran edi. Zamonaviy shoirlar esa bir she'rning o'zida turli qofiyalarni qo'llashga harakat qildilar. "Qofiya, - deydi Iziddin Ismoil, – "yangi she'r"ning eng muhim xususiyati, uning ruknidir. Shoirlar qadimgi shoirlardek bir xil qofiya atrofida to'xtab qolmadilar. Balki o'zlarini qoniqtiruvchi o'z hissiyotlariga moslagan holda qofiyalar tanlab, ularni rang-barang qilishga erishdilar" [9:63].

Quyida Saloh Abdussaburing turli qofiyalar qo'llanilgan "Menda ham qalb bor edi" (كان لي ) كان لي ) she'rini ko'rib chiqamiz:

- (1) طرقت نوادي الاصحاب لم اعثر على صاحب
- (2) وعثت تدعني الأبواب والبواب وال حاجب
- (3) يخرجي إمتداد طريق
- (4) طريق مفتر شاحب
- (5) لا آخر مفتر شاحب
- (6) تقوم على بيته قصور
- (7) وكان الحانط العملاق يسحقني
- (8) ويختفي
- (9) وفي عيني سؤال طاف يستجدي
- (10) خيال صديق
- (11) تراب صديق
- (12) ويصرخ أنتي وحدك
- (13) ويا مصباح مثلك ساهر وحدك
- (14) وبعث صديقي... بوداع [10:223-224]

*Do'stlar yig'iladigan joylarning eshigini taqillatdim,  
Lekin birorta do'stni topa olmadim.*

*Eshik og‘alari va xizmatchilar chaqirig‘in eshitib ortimga qaytdim.  
 Ular meni ko‘chaga chiqardilar .  
 Qorong‘u, kimsasiz yo‘ldan ketib boraman,  
 Boshqa yo‘l ham kimsasiz, zulmat.  
 Qasrlar qad rostlagan yo‘l chekkasida,  
 Uning baland devorlari qalbimni ezadi,  
 Nafasim bo‘g‘adi.  
 Xayolimda doim aylanadi bir savol,  
 U so‘raydi do‘st haqidagi xayollarimni,  
 Zarracha do‘stlikdan umidlarimni.  
 Bu savol hayqiradi yolg‘izsan deya.  
 Ey tun og‘ushini yoritgan chiroq!  
 Men ham sen singari yolg‘izman – tanho.  
 Do‘stga bevafolik qilib... vidolashdim men.*

صديق، صديق، (شاحب، شاحب، حاجب، صاحب) 1, 2, 4, 5-satrlari (وحدى، وحدى، يخنقى، يسحقى) 3, 10, 11-satrlari (طريق 7, 8, 9, 12, 13-satrlari 6, 14-satrlari esa hech qaysi satr bilan qofiyalanmagan. Qofiyalanishning bunday usuli she’r mazmuniga ta’sir qilmaydi. Ular nutqni yanada ohangdor va ta’sirchan bo‘lishiga imkon beradi.

Zamonaviy shoirlar ijodida an'anaviy qasidadagidek yagona qofiyaga ega bo‘lgan erkin she’rlarni ham uchratamiz. Jumladan, Amal Dunqulning quyidagi “Xotima” – خاتمة – Xātima she’ri bunga misol.

آه... من يوقف في رأسي الطواحين؟

و من ينزع من قلبي السكاكين؟

و من يقتل أطفالى المساكين...

للا يكروا في الشقق المفروشة الحمراء

خدامين...

مأبونين...

قوادين...

من يقتل أطفالى المساكين؟

لكيلا يصيروا - في الغد - شحاذين...

يستجدون أصحاب الدكاكين

واب المرابين [8:93]

*Oh...kim to‘xtatar boshimdagи tegirmon toshlarining aylanishini?*

*Kim sug‘urar qalbimdan pichoqlarni?*

*Miskin bolalarimning o‘lgani yaxshi emasmi?*

*Qizil gilam to‘shalgan xonardonlarda*

*Yugurdak...*

*Ayolsifat...*

*Qo‘shmachilar bo‘lib o‘sandan ko‘ra.*

*Miskin bolalarimning o‘lgani yaxshi emasmi?*

*Ertaga gadoy bo‘lib,*

*Do‘kondorlar, poraxo‘rlar eshidida*

*Sadaqa so‘rab yurgandan ko‘ra.*

An'anaviy qasidada har bir bayt tugallangan fikrga ega bo‘ladi, erkin she’rda esa shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrni birgina satrda anglab olish mushkul. Fikr ikki, uch yoki undan ortiq

satrlarda ifoda etiladi. Bu esa o‘quvchidan jiddiy e‘tiborni talab qiladi. Ko‘rib turganimizdek, zamonaviy she’rlar an'anaviy qasidalardan ko‘p jihatlari bilan farq qiladi. Bunday she’rlar o‘zlarining ixchamligi va lo‘ndaligi, bosim va hayajonning o‘ziga xosligi bilan insoniyat ichki hissiyotlari, muammolarini, ijtimoiy-siyosiy hayotni aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bu xususiyatlarning barchasi zamonaviy shoirlar ijodida o‘z ifodasini topdi. Ularning she’riyatida vatan va xalqqa muhabbat,adolatsizlik,yovuzlik,jaholat,jamiyat illatlari va kamchiliklarga qarshi kurash g‘oyalaring keng ko‘lamda yangi ifoda usullari orqali tasvirlanishi “yangi she’riyat” rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda Misr she’riyati obrazlar tizimi, tasviriy vositalarning rang-barangligi, satirik tilning o‘tkirligi, umuman bunday unsurlarning mo‘lligi bilan boshqa arab davlatlari she’riyatidan ajralib turdi.

Misr adabiyotidagi “yangi she’riyat” harakatining o‘ziga xos xususiyatlarini kuzatish quyidagi xulosalarga olib keldi:

– Zamon taqozoszi bilan Misr voqeligidagi ro‘y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy o‘zgarishlar Misr adabiyotida yangilanish ehtiyojini vujudga keltirdi. She’riyatda bu talab “yangi she’riyat” (‘ash-shi‘ru-l-hadis) nomini olgan yangilanish harakatida o‘z ifodasini topdi. “Yangi she’riyat” yangi sharoitda badiiy ongning taraqqiy etishi, shoirlar dunyoqarashining o‘zgarishi, she’riyatga yangi mavzularning kirib kelishi, shakl jihatidan o‘zgarishi va yangi she’riy texnikaning vujudga kelishida o‘z ifodasini topdi.

– Bu davrga kelib badiiy ifoda usullaridagi o‘zgarishlar bilan bir qatorda, poetik til aniqlashdi va soddalashdi. Ba’zi hollarda u xalq tiliga yaqinlashdi. She’riyatda da’vat, chaqiriq, shioriy-inqilobiy iboralarni qo’llash kuchaydi.

– “Yangi she’riyat” namoyandalari milliy merosdan voz kechmagan holda jahon she’riyati tajribasiga yondashdilar. Umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lib, ulardan samarali foydalandilar. Ular milliy she’riyat xazinalarini yanada boyitib, bir tomondan, XX asrning boshlarida yangi mumtoz (neoklassik) she’riyatning buyuk shoirlari Mahmud Samiy al-Barudiy, Ahmad Shavqiy, Hofiz Ibrohim, Xalil Mutronlar tiklagan ijtimoiy-siyosiy she’riyatni davom ettirgan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, arab romantiklari ilgari surgan shaxsiyatning qadr-qimmatini e’zozlash, uning ichki dunyosini kashf etish kabi tamoyillarni saqlab qolishga erishdilar. “Yangi she’riyat”ning eng mashhur shoirlari mana shu ikki yo‘nalish sifatlarini o‘zlarida mujassamlashtirib, hayot bilan yuzma-yuz turib, teran fikrli badiiy go‘zal asarlar yaratdilar.

She’riy texnika sohasida “yangi she’riyat” namoyandalari aruz bahrlaridan foydalanishda davom etib, ikki misrali bayt hamda yagona qofiyadan to‘la voz kechdilar. Misralarni har xil hajmdagi satrlarga joylab, vazn ruknlari muvozanatini she’rda hukm surgan shoir kayfiyatiga, niyatiga mosladilar. She’rlar an'anaviy shaklni yo‘qotib, yaxlit she’riy lavha ko‘rinishidagi zamonaviy asarga aylandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Талабов Э. Араб арузи. – Т., 1977 .
2. Ибрагим Джавдат. О некоторых основных принципах критики арабской поэзии XX в. – Тбилиси: Тбилисский университет, 1990 .
3. Кирпиченко В.Н., Сафонов В.В. История египетской литературы XIX–XX вв. В 2-х томах. – М.: Восточная литература, 2002. Т.1.
4. Кирпиченко В.Н., Сафонов В.В. История египетской литературы XIX–XX вв. В 2-х томах. – М.: Восточная литература, 2003. Т.2 .

5. Куделин А.Б. Пути развития современной арабской поэзии // Взаимосвязи африканских литератур и литератур мира. – М.: Наука, 1975. -С.7-24.
6. Ходжаева Р.У. Очерки развития египетской поэзии. – Т.: Фан, 1985 .
7. Ходжаева Р.У. Тенденции и направления египетской поэзии в последней четверти XX века // Проблемы восточной филологии. – Т.: ТашГИВ, 2005. – С. 145-153.
8. دنقل أمل. العهد الآتي. بيروت، دار العودة، ١٩٧٥.
9. اسماعيل عز الدين. الشعر العربي المعاصر – قضايا وظواهر الفنية والمعنوية. القاهرة، دار الكتاب، ١٩٦٧.
10. الحاوي ابراهيم. حركة النقد الحديث المعاصر في الشعر العربي. بيروت، مؤسسة الرسالة، ١٩٨٤.
11. خضرفوزي. الترحال في زمن الغربة. القاهرة، مطبع الهيئة المصرية العامة للكتاب، ١٩٨٤.
12. داود احمد يوسف. لغة الشعر. دمشق، منشورات وزارة الثقافة والإرشاد القومي، ١٩٨٠.
13. الدسوقي عبد العزيز. جماعة ابوالو واثرها في الشعر الحديث. القاهرة، الهيئة المصوّية العامة للتأليف والنشر، ١٩٧١.
14. الملائكة نازك. قضايا الشعر المعاصر. بيروت، دار العودة، ١٩٦٢. – ١٠٧ ص.
15. نشأت كمال. ابو شادي وحركة التجديد في الشعر العربي. القاهرة، دار الهلال، ١٩٦٧.